

Abduraxmanova Zumrad Normurot qizi

Toshkent viloyati Nurafshon shahri 10-umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

TOPONIMLAR VA ULARNING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: Toponimlar va ularning lingvistik tahlili, toponomikaning fan sohasida shakllanishi, tilshunosligimizda bu sohada olib borilayotgan islohatlar. Toponimlarning tarkibi, ularning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, grammatick tuzilishi tahlil qilindi. Shuningdek, toponimlarni etimologik va grammatick jihatdan tahlillari taqdim etildi.

Annotation: The linguistic analysis of toponyms, the formation of toponomy as a scientific field, and the reforms being carried out in this area in our linguistics. The structure of toponyms, their relation to other sciences, and their grammatical structure were analyzed. Additionally, the etymological and grammatical analyses of toponyms were presented.

Kalit so‘zlar: Toponimika, toponim, toponimiya tushunchalari, toponimlarning geografik, tarixiy, lingvistik talqini.

Kirish. Bugungi kunda o‘zbek tilini til sifatida xalqlar orasida nufuzini oshirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy tilga, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash juda muhim masaladir. Yurtimizda davlat tilini mavqeni mustahkamlash borasida bir qancha qonuniy hujjatlar, qaror va farmonlar mavjud. Bularda davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganishga sharoit yaratish,yurtimizdagi barcha millat va elat tillarini saqlash, ularni boyitib borish kabi ustuvor masalalar haqida so‘z boradi. Shunday muhim masalalardan biri tilshunoslikdagi toponomika sohasiga oid ilmiy va amaliy izlanishlar, ulardagi yutuq va kamchiliklar masalasidir.

Toponimlar joy xususiyatini, uning tarixini, ushbu obyekt bilan bog‘liq voqeа-hodisani anglatgan oddiy so‘z va nomning birikuvidan hosil bo‘lgan atoqli otdir. Toponimlar doirasida uchta tushunchani farqlash lozim: “Toponimika”, “Toponimiya”, “Toponim”.

Toponimika – joy nomlari, ularning tuzilishi, geografik nomlarning hosil bo‘lishi va rivojlanishi bilan shug‘ullanuvchi fan;

Toponimiya – joy nomlari yig‘indisi (masalan, Buxoro toponimiysi – Buxoro joy nomlari yig‘indisi);

Toponim – bu bitta joyga tegishli xususiy nom. Toponimlar tilshunoslik nuqtayi nazari bilan o‘rganilganda nomning paydo bo‘lishi, uning tarixi, yaratilishi, leksik-semantik tasnifi, lingvistik strukturasi, so‘z turkumi, uning atoqli otligi, qaysi tilga mansub leksika ekanligi, toponim bilan bog‘liq til qonuniyatlari o‘rganiladi. Demak, toponimlar juda qadimdan paydo bo‘lgan tushuncha hisoblanib, insonlar ma’lum bir hududda yashab, uni boshqasidan farqlash maqsadidida unga nom qo‘yishgan. Shundan toponimlar vujudga kelgan. Kishilar oq-qoranini tanib tirikchilik qila boshlashibdiki, tevarak-atroflaridagi yerlarni, daryo-ko‘llarni, tog‘lar-u qir-adirlami, o‘tloq-yaylovlarni ma’lum bir nom bilan atab kelganlar.

Ko‘rinadiki, toponomika qadimiy tarixga ega. Joy nomlari, ya’ni toponimiya bir necha turga bo‘linadi. Bir joyni ikkinchisidan, bir jilg’ani boshqa bir jilg’adan, bir ko‘chani yonidagi

ko‘chadan, tog‘-adirlami, shahar va qishloqlarni bir-birlaridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o‘ylab chiqargan. Joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi

Toponimika yunoncha topos —joy va onoma (yoki onima) — nom so‘zlaridan tarkib topgan. Joy nomlari, ya’ni toponimiya bir necha turga bo‘linadi. Bular gidronomiya (yunoncha gidro — suv), ya’ni daryolar, ko‘llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo‘ltiqlar, bo‘g‘ozlar, sharsharalar nomlari; oronimiya (yunoncha oros — tog1), ya’ni yer yuzasining rellef shakllari tog‘lar, cho‘qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; oykonimiya (yunoncha oykos — uy), polinimiya (yunoncha polis — shahar) yoki urbanonomiya (lotincha urbos — shahar), ya’ni qishloq hamda shaharlaming nomlari, mikrotoponimiya (yunoncha mikros kichik), ya’ni kichik obyektlar; buloqlar, quduqlar, dalalar, o‘tloqlar daraxtzorlar, jarlar, yo‘llar, ko‘priklar va hatto atoqli otga ega bo‘lgan ayrim daraxtlar nomlari¹. Taniqli toponomika bo‘yicha mutaxassis S. Qorayevning Toponomika qo‘llanmasida ham bu sohaning o‘ziga xosligi haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: Toponimlar til lug‘at fondining bir qismidir. Shu bilan birgalikda joy nomlari tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina farq qiladi. Bu farq toponimlarning uzoq yashashida, ulaming polikomponentli, ya’ni ko‘p komponentlardan tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishida, har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko‘ra, toponimlar yasashda turdosh otlar (apellyativlar) ishtirok eta olishida o‘z aksini topadi.

Demak, toponimlar tilshunoslikda muhim sohalaridan biri. Toponimlar ma’nosini bilish, uni qaysi tildan o‘zlashganini, ma’no va mohiyatini anglash orqali kishida shu hududga bo‘lgan muhabbat hissi ortadi. Hozir biz bir nechta toponimning kelib chiqish va yasalish xususiyatini keltirish orqali bu sohadagi o‘ziga xos tizimga diqqat qaratamiz.

Toponimlar tarixini yoritish orqali biror hududning o‘tmishdagi tabiiy sharoiti, siyosiy holati, etnik jarayonlari, iqtisodiy mavqeい, xalqaro aloqalari, aholining ijtimoiy va madaniy hayoti kabilar haqida ma’lumot olish mumkin. Zero, “toponimlar bu yerning tili”², ularda ma’lum hududning tarixi aks etadi. Bu o‘z navbatida tarixni mukammallashtirish imkonini berish bilan birga, unga aniqliklar kiritadi, har bir viloyat, shahar, qishloqlar tarixining o‘z o‘rni bor va uni manbalarga tayanib o‘rganish zarurati tug‘ildi. Hozir Qashqadaryo viloyatidagi ba’zi joy nomlarining nomlanishiga oid izohlarni ko‘rib chiqamiz. Qashqadaryo viloyatidagi Yakkabog‘ tumani 1926-yil 29-oktabrda tashkil etilgan. Yakkabog‘ tuman bo‘lib shakllangunga qadar, uning hududlari ko‘hna Keshning ajralmas qismi bo‘lgan. Taxminlarga qaraganda qadimiy Keshning yoqasida yashil bog‘lar mavjud bo‘lib, bular Kesh yoqasidagi bog‘lar nomi bilan atalgan. Keyinchalik, yillar o‘tgach “yoqadagi bog‘” toponimi „Yakkabog‘“ nomini olgan deyiladi. To‘ra Nafasovning “O‘zbek tili” toponimlarining o‘quv izohli lug‘atida “Yakkabog‘” bitta, yakka bog‘ ma’nosida ishlataligligi haqida ma’lumot keltirilgan. Demak, birgina toponimning bir qancha ma’nosи bor. Toponimlarni o‘rganish orqali toponimning kelib chiqishi bilan bog‘liq bir qancha izohlar bilan tanishamiz, yangi bilimlar hosil qilamiz.

Xulosa qilib aytganda toponimika sohasi keng ko‘lamli tilshunoslik tarmog‘i bo‘lib, tarix, geografiya, adabiyot fanlari bilan aloqadorlikda rivojlanadi. Vaqt o‘tishi bilan rivojlanib, o‘zgarib, kengayib borishi mumkin. Bu sohani o‘rganish til birliklariga xos bo‘lgan o‘ziga xosliklarni aniqlaydi, so‘zga, tilga muhabbatimizni oshiradi. Uni rivojlantiradi, boyitadi. Fan sohasi sifatida bu sohani rivojlantirish muhimdir. Chunki tug‘ilib o‘sgan yurti, yashab turgan joyining tarixini, uning ma’naviy qadriyatlarini bilmaslik juda ayanchlidir. Shu bilan birga shu joyining lingvistik izohini bilish ham muhimdir.

¹ S.Qorayev Toponimika

² Ҳасанов X. Ер тили. – Т.: Ўқитувчи, 1977. – 4 6

Foydalaniman adabiyotlar:

- 1.N.Xudoyqulova Toponimikaning mohiyati va terminologik tushunchalar to‘g‘risida. Oriental Renaissance:Innovative,education, natural and ocial sciences, 2022-y 105-bet
2. S.Qorayev .Toponimika –T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006-y.
- 3.Hasanov H. Er tili. – T.: O‘qituvchi, 1977. – 4 b
4. T. Nafasov, V. Nafasova. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati-T.: yangi asr avlod,2007-y